



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI

2024-yil “09” iyul

153/09-2-qr- sonli

Toshkent sh.

“O'zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-, 59-moddalari, “O'zbek geologiya qidiruv” AJ (keyingi o'rirlarda – jamiyat) kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 25-iyundagi 5-2024-sodan bayonnomasi qarorlari va jamiyatning 2024-yil 26-iyundagi 01-14-755-sodan murojaatiga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi**:

1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 187-sodan qaroriga (5-band) muvofiq:

“O'zbek geologiya qidiruv” AJni uning tasarrufiga “Regionalgeologiya” DMning tegishli aktivlarini balans (qoldiq) qiymatda qo'shib olish orqali qayta tashkil etilishi;

“O'zbek geologiya qidiruv” AJ ustav fondining miqdori “Regionalgeologiya” DM mulkinining **balans (qoldiq) qiymati asosida oshirilishi** belgilanganligi;

b) “Regionalgeologiya” DM tasarrufidagi “O'zbek geologiya qidiruv” AJ ustav fondiga berilishi belgilangan tegishli aktivlar bo'yicha Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan xatlov ishlari olib borilayotganligi;

d) “Regionalgeologiya” DMning aktivlari jamiyatga o'tayotganligi sababli jamiyat faoliyat va xizmat ko'rsatish sohasida qo'shimcha faoliyat turlarini amalga oshirishi zaruriyati mavjudligi;

e) jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yil 25-iyundagi majlisida jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi ko'rib chiqilib, ma'qullanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

- 2.** Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- 3.** Jamiyat boshqaruv raisi Sh. Alimov:
jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini;
xatlov natijalariga ko‘ra, “Regionalgeologiya” DM tasarrufidagi aktivlarni jamiyatga qabul qilib olinishini ta’minlasin.
- 4.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining birinchi o‘rnbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r	Eski tahrir	Yangi tahrir	Asos
1	<p>III. Jamiyat faoliyatining sohasi (asosiy yo‘nalishlari) va maqsadi</p> <p>3.2. Jamiyatning faoliyatidan asosiy maqsad respublikaning barcha hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, konlarni izlash, baholash va qidirib chamlashni o‘z ichiga olgan geologiya - qidiruv ishlarini olib borishdan iborat. Bundan tashqari analitik, tematik va regional geologik tadqiqotlar va laboratoriya tahlili, topografik, geologik tasvirlash va xaritalash ishlari, va boshqa foydali qazilmalarni qidirish, baholash, razvedka qilish ishlarini olib boradi.</p>	<p>III. Jamiyat faoliyatining sohasi (asosiy yo‘nalishlari) va maqsadi</p> <p>3.2. Jamiyatning faoliyatidan asosiy maqsad respublikaning barcha hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, konlarni izlash, baholash va qidirib chamlashni o‘z ichiga olgan geologiya-qidiruv ishlarini olib borishdan iborat undan tashqari analitik, tematik va regional geologik tadqiqotlar va laboratoriya tahlili, topografik, geologik tasvirlash va xaritalash ishlari, va boshqa foydali qazilmalarni qidirish, baholash, razvedka qilish ishlarini olib boradi.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ – 5083-son qarori, Jamiyat faoliyatidan keilib chiqib ijroiya organining tashabussi</p>

Yangi kichik band kiritilmoqda

O‘zbek geologiya qidiruv” AJ – strategik turdag'i foydali qazilmalar (oltin, kumush, mis, volfram, qo‘rg‘oshin, rux va boshqalar)ga kompleks geologiya-qidiruv ishlarini (xizmatlari) va tarixiy geologik ma‘lumotlarni raqamlashtirishni amalga oshiruvchi, ya‘ni geologiya-qidiruv ishlarini boshlang‘ich bosqichidan oxirig‘ bosqichi - foydali qazilma konini baholash va uni davlat zaxira balansiga taqdim etish bosqichigacha amalga oshiruvchi, shuningdek, bu yo‘nalishda kon-metallurgiya kombinatlari va boshqa kon qazib oluvchi tashkilotlarning Respublikada yagona pudratchisi hisoblanadi.

T/r	Eski tahrir	Yangi tahrir	Asos
3	<p>3.3. Jamiyat o‘zining asosiy maqsadidan kelib chiqib, faoliyat va xizmat ko‘rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:</p> <p>Yangi kichik bandjap kiritilmoqda</p> <p>3.3. Jamiyat o‘zining asosiy maqsadidan kelib chiqib, faoliyat va xizmat ko‘rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:</p> <p>regional geologik-tasvirlash, aerogeofizik, geokimyoviy, chukurlikda o‘rita va katta masshtabda xaritalash, kosmogeologik, foydali kazilmalar konlari konsentratsiyasini aniqlash uchun kimyoviy va tahiliy taddkikotlar o‘tkazish, belgilangan geologik vazifalarning bajarilishini ta‘minlaydigan va foyda keltiradigan turli xil geologik namunalarning tarkibini o‘rganish;</p> <p>regional geologik tasvirlash va ilg‘or kidiruv usullarini qo‘llagan holda foydali qazilma konlarini qidirish;</p> <p>ekologik standartlar talablariga rioya qilish;</p> <p>topografik-geodeziya, stratigrafik va paleontologik, tematik, kartografik, ishlari;</p> <p>foydali qazilma, shu jumladan noan‘anaviy turlari va cho‘kindi gilof katami ostida yashiringan konlarni izlash va qidirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi;</p> <p>Tog‘-kon geologiya vazirligi bilan, texnologik, ekogeologik, eksperimental va boshqa ishlarning asosiy yo‘nalishlari va hajmlarini belgilaydi va moslashtiradi.</p>	<p>3.3. Jamiyat o‘zining asosiy maqsadidan kelib chiqib, faoliyat va xizmat ko‘rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:</p> <p>regional geologik-tasvirlash, aerogeofizik, geokimyoviy, chukurlikda o‘rita va katta masshtabda xaritalash, kosmogeologik, foydali kazilmalar konlari konsentratsiyasini aniqlash uchun kimyoviy va tahiliy taddkikotlar o‘tkazish, belgilangan geologik vazifalarning bajarilishini ta‘minlaydigan va foyda keltiradigan turli xil geologik namunalarning tarkibini o‘rganish;</p> <p>regional geologik tasvirlash va ilg‘or kidiruv usullarini qo‘llagan holda foydali qazilma konlarini qidirish;</p> <p>ekologik standartlar talablariga rioya qilish;</p> <p>topografik-geodeziya, stratigrafik va paleontologik, tematik, kartografik, ishlari;</p> <p>foydali qazilma, shu jumladan noan‘anaviy turlari va cho‘kindi gilof katami ostida yashiringan konlarni izlash va qidirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi;</p> <p>Tog‘-kon geologiya vazirligi bilan, texnologik, ekogeologik, eksperimental va boshqa ishlarning asosiy yo‘nalishlari va hajmlarini belgilaydi va moslashtiradi.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ-187-son qarori, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 28-maydagi PQ – 187-sod qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida 64-son buyrug‘i</p>